

TA'LIMDAGI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA UNING GLOBAL REYTINGLARGA TA'SIRI

Andijon davlat chet tillari instituti

Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi va tarjimashunoslik fakulteti

Ingliz tili integrallashgan kursi kafedrası

Ingliz tili yo'nalishi

1-bosqich 103-guruh talabasi

O'rinboyeva Surayyo

Ilmiy rahbar: f.f.d. (phd) N. M. Qodirova

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi raqamli transformatsiyalarning ta'lim sifatini yaxshilashda va uning jahondagi nufuzli ta'lim muassasalari darajasiga yetkazishda muhimligi, ularning ahamiyati, global reytinglarga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, ta'lim sifatini yaxshilash, global reyting, xalqaro hamkorliklar, ta'limni raqamli transformatsiyalash.

Abstract: This article discusses the importance of digital transformations in the educational system in improving the quality of education and bringing it to the level of prestigious educational institutions in the world, their importance, and their impact on global ratings.

Keywords: Digital technologies, improving the quality of education, global rating, international cooperation, digital transformation of education.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение цифровых преобразований в системе образования для повышения качества образования и доведения его до уровня престижных учебных заведений мира, их значение, а также влияние на глобальные рейтинги.

Ключевые слова: Цифровые технологии, повышение качества образования, глобальный рейтинг, международное сотрудничество, цифровая трансформация образования.

Raqamli texnologiyalardan foyladalish va ularni har bir sohaga tatbiq etgan holda zamon bilan hamnafas bo'lish bugungi kun talabidir. Ta'lim sohasida ham bu texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini oshirish, xalqaro ta'lim dargohlari bilan xamkorlikni yaxshilab faol yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish va jahon reytingidagi o'rinlarni yanada yuqori qilishda kata ahamiyatga ega. Hozirda ta'lim sifatini yaxshilashda ta'limni raqamlashtirish boshlangan va jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Bunga dalil sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son farmoni bilan tasdiqlangan 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston

Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorini keltirishimiz mumkin. Bunga muvofiq oliy ta'lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta'lim dargohlari bilan hamkorlikda transformatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

oliy ta'lim jarayonini raqamli formatga o'tkazish, raqamli ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish asosida bilimlar transferini ta'minlash, har bir ta'lim oluvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda bilim, kompetensiya, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun axborot tizimlarini joriy etish;

loyihaviy o'qitish usullarini kengaytirish, jahon miqyosidagi yetakchi tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikka asoslangan innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish hamda innovatsion tadqiqotlarni rivojlantirish va ishlanmalarni amaliyotga joriy etish;

talabalarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini yaratish;

oliy ta'lim muassasasini hududdagi mahalliy jamoalarning ta'lim, ilm-fan va ijtimoiy-madaniy sohalarda rivojlanishini ta'minlaydigan markaz sifatida shakllantirish;

hududning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari va vazifalarini hal qilish borasida mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlari hamda jamoat tashkilotlari bilan strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash va rivojlantirish.

Bu raqamli transformatsiya va xalqaro hamkorlik orqali ta'limni rivojlantirishga qaratilgan qadamlardan biri edi va hozir ham bu ishlar yuqori sur'atlarda davom etmoqda. Bunga sabab esa raqamli resurslardan foydalanish nafaqat ta'lim sifatini yaxshilayotgani, balki o'quv muhitini osonlashtirib, tezlashtirib va qisqa vaqt ichida malakali mutaxassislarni yetishtira olish imkoniyatini yaratib berayotganidadir. Mamlakatimizda raqamlashtirishga qaratilgan yana bir e'tibor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "RAQAMLI O'ZBEKISTON — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi farmonidir. Ushbu farmonga muvofiq mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda ta'limni raqobatbardosh qilish uchun ta'lim muassasalari eng so'nggi texnologik ishlanmalar va elektron ta'lim vositalaridan foydalanishi lozim. Raqamli transformatsiya sifatli ta'limni rivojlantirish va zamon talabidagi kadrlarni yetishtirib chiqarishda katta ahamiyatga ega. Xo'sh, uning ijobiy va salbiy tomonlari nimalardan iborat.

Ijobiy tomonlari:

- O'quv materiallarining yaxshilangani (interaktiv raqamli doskalar, virtual darslar, onlayn konfirensiyalar va ma'ruzlarda oson ishtirok etish).
- Shaffoflik (imtihon , baholash, davomat jarayonini onlayn kuzatib borish va uni o'zgartirishning imkonsizligi).
- Qulaylik (o'qituvchilar tomonidan davomat va baholashning osonlashishi, kasallik yoki shaxsiy sabablari tufayli o'qishga bora olmaydigan talabalar uchun imtihonlarni onlayn topshirishi, ko'p miqdordagi dars resurslarining mavjudligi).
- Yoshlarning texnologiyalarga bo'lgan ko'nikmalarining oshishi.
- Xavfsizlik (diplom va sertifikatlarni blokcheyn texnologiyasi orqali tasdiqlash firibgarlikning oldini oladi va xalqaro tan olishni osonlashtiradi).

Salbiy tomonlari:

- Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish uchun joylarda jihozlarning va kerakli IT savodxonligining yetishmasligi.
- O'quvchilarga keraksiz bo'lgan saytlarga kirishini cheklash filtrining amalga oshirilmaganligi va shu sababdan vaqtni befoya ishlarga sarflash.
- Shaxsiy xavfsizlikni oshirish maqsadida talabalarning media bilimini kuchaytirish kerakligi.

Xalqaro hamkorlik yoki raqamli transformatsiyalar orqali kiritilgan o'zgarishlarga qaramay ta'limning maqsadi insonning ijtimoiy, siyosiy hamda iqtisodiy hayotda mas'uliyat bilan ishtirok etishi va har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishi bo'lib qoladi. Umuman olganda, raqamli transformatsiya ta'lim sifatini oshirish bilan birga, universitetlarning global maydondagi raqobatbardoshligini ham kuchaytiradi. Raqamli texnologiyalarni samarali joriy etgan universitetlar yuqori reytinglarda joy egallash imkoniyatiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.10.2020-y., 09/20/655/1412-son;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son
3. TA'LIMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYASINI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY TAMOIYILLARI. (2024). *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 69-73. <https://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/971>
Mualliflar: Mamarajabov Odil, Asatullayeva Hilola
4. <https://uz.wikipedia.org>
5. Anarbayerova , F. (2024). RAQAMLI TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING AHAMIYATLILIK JIHATLARI. *DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE*, 2(5), 69–72. Retrieved from <https://dtai.tsue.uz/index.php/dtai/article/view/v2i511>